



PROSPECTIVE DIRECTIONS FOR ENHANCING THE LEGAL CULTURE OF WOMEN

Marapat Abdughalikovna Akayeva

Associate Professor

Candidate of juridical sciences

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: democracy, legal culture, women, gender equality, social equality, society, family, education, vocational training.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: In the process of democratic transformation, the legal culture of women plays a vital role. Approaches aimed at protecting and ensuring women's rights help promote equality, justice, and stability in society. The legal culture of women is one of the key factors ensuring the sustainability of a democratic society. As legal awareness and activism increase, gender equality and the fair development of society are strengthened.

XOTIN-QIZLAR HUQUQIY MADANIYATINING YUKSALTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Marapat Abdughalikovna Akayeva

Dotsent, yuridik fanlar nomzodi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: demokratiya, huquqiy madaniyat, ayollar, gender tengili, ijtimoiy tenglik, jamiyat, oila, ta'lif, kasb-hunar.

Annotatsiya: Demokratik yangilanish jarayonida xotin-qizlar huquqiy madaniyatni muhim ahamiyatga ega. Ularning huquqlarini himoya qilish va himoya qilishga qaratilgan yondashuvlar jamiyatda tenglik,adolat va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu maqolada xotin-qizlarning huquqiy madaniyati demokratik jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligi hamda huquqiy bilim va faoliyot oshgani sari

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ЖЕНЩИН

Маранат Абдухаликовна Акаева

Кандидат юридических наук, доцент

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: демократия, правовая культура, женщины, гендерное равенство, социальное равенство, общество, семья, образование, профессиональные навыки.

Аннотация: В процессе демократических преобразований правовая культура женщин имеет важное значение. Подходы, направленные на защиту и обеспечение их прав, способствуют обеспечению равенства, справедливости и стабильности в обществе. В данной статье подчёркивается, что правовая культура женщин является одним из ключевых факторов стабильности демократического общества, а также то, что по мере повышения правовой осведомлённости и активности укрепляются гендерное равенство и справедливое развитие общества.

Kirish.

Xotin-qizlarning huquqiy madaniyati demokratik jamiyat rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bu tushuncha ayollarning huquq va erkinliklarini bilishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi va huquqiy jarayonlarda faol ishtirok etishini anglatadi.

Xotin-qizlar huquqiy madaniyati – ayollarning huquqlarini anglash, ularni himoya qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan bilimlar va qadriyatlar majmuasidir. Bu madaniyat, jamiyatdagi gender tengligi vaadolatni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Prezidentning 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sod Farmoniga muvofiq "Yuksak huquqiy madaniyat - mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilishni nazarda tutuvchi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiysi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Asosiy qism

Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonligini oshirish, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari davlat

organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. U “shaxs - oila - mahalla - ta’lim muassasasi - tashkilot - jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

O‘zbekiston hukumatining ijtimoiy siyosatidagi yangilanish xotin-qizlarning turmushdagi maishiy muammolarni aniqlash va manzilli yechimini topish uchun bir qator mezon asosida 433 ming ayollarning “daftarlar” asosida ro‘yhatdan o‘tishi, ular orasidan 80 mingdan ortig‘i o‘z vaqtida ijobiy hal etilganligi siyosiy yangilik, deb hisoblash mumkin. Respublika hukumatining xotin-qizlarga oid siyosatining mazmuni ayollarning bandligi, tibbiy reproduktiv salomatlikni tiklashga g‘amxo‘rlik, oilaviy turmush muammolarini mutahkamlash asosida farzand tarbiyasiga mustahkam zamin yaratishni ko‘zlaydi. Muammoning nozikligi O‘zbekiston Prezidenti tomonidan “Eng og‘ir, murakkab masalalarimiz ayollar bo‘yicha, xalqimizning talabi o‘sib boryapti”, deya rahbarlarga ayollarning munosib sharoitini ta’minalash vazifasini belgilab berdi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatning asoslarini barpo etish, Harakatlar strategiyasining konstruktiv va destrukturali holatida ayollarning rolini ilmiy taxlili ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda ayollarning axoli umumiyligi salmog‘idagi ulushi ham ularning qonuniy manfaatlarini muxofazasi, ta’lim va tarbiya, bandligi, oilaviy tadbirkorlikdagi ulushi, maishiy turmush, reproduktiv salomatligi kabi muammolarni operativ hal etishni takozo etadi. E’tirof etish lozimki, 1 400 ga yaqin xotin-qizlar davlat markaziy boshqaruv tizimida, 43 mingdan ziyodi esa mahalliy hokimiyatda mas’ul vazifalarda faoliyat yuritmoqda. Ayni vaqtda o‘qiyotgan yoshlarning orasida 48 foizi bo‘lsa, endilikda 950 ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarga davlat granti belgilanishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi[1].

O‘zbekiston Respublikasida ayollar masalasi yuzasidan bir qator muammolar o‘zining yechimini topsa-da, lekin yurtimizda T. K. Norboeva yetakchiligidagi Xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tuzish vazifalari ham fikrimizning isbotidir. Bu Kengash 2021 yilda 17 million ayollarning tikuvchilik, hunarmandchilik, kasanachilik, parrandachilik va fermer ho‘jaliklarini tashkili bilan bandlikka doir muammolarni hal etish belgilandi. Shu bilan birga “Ayollar daftari”dagi 70 mingdan ortig‘ini zamonaviy biznes ishiga mos qayta tayyorlash ishi boshlandi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Prezidenti rahbarligida mazkur sohada ijobiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, 70 mingga yaqin ayollarning sohadagi muammolari oilaviy biznes uchun imtiyozli 2 trillion so‘m kredit ajratilishi muammoni jiddiy yaxshiladi. Yuqoridagi faktlarga tayanib, ayollarning mavqeい erkaklarnikidan jiddiy o‘sib, sun’iy jihatdan “ko‘tar-ko‘tar” qilish nafaqat erkaklarning ijtimoiy mavqeい, balki ayollarning ijtimoiy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi faol o‘rni masalasi tarbiya ilan bog‘liq bo‘lib, oilaviy tarbiyadagi faoliyatini shakllantirishga ehtiyo mavjudligini etnolog B. Isoqov Jan Jak Russo va A.

Avloniyning ayolning ijtimoiy vazifalarini solishtirib, "...Birinchisi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchisi esa maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris, hukumatning vazifasidir" degan javobni milliy tiklanish zaruriyati ekanligini ta'kidlaydi[2]. Shu bilan birga ayolning ilm-fan bilan ma'rifatlilik darajasi 2 million chaqaloqning ulg'ayishi bilan tadqiq etilib, ma'rifatsiz ayollarda go'daklarning o'lim 63 foiz yuqori ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida xotinqizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, erkaklar bilan bir qatorda teng imkoniyat va sharoitlar yaratish, bu borada ularga muayyan imtiyozlarning berilishi, gender tenglikni ta'minlashdagi sa'y-harakatlar, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash bo'yicha hukumat doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi jamiyatda xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini yanada ko'tarish va shu asosda ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy mavqeyi hamda faolligini oshirish, xotin-qizlarning hayoti bilan bog'liq muammolarni yechishga qaratilgan.

Xalqaro nufuzli tashkilotlarning hisobotlarida aholini toza ichimlik suv ta'minoti xususida fotosuratlar ilova qilingan. Ularda an'anavy ketmon bilan ayollarning ariq qazishi, erkaklarni esa ish boshqaruvchi sifatida muhrlangan. Bu ayollarning erkaklar bilan tengligiga qiyosiy namoyishi sifatida aholi bindligida 45,4 foiz ayollar bandligi, 76,2 foizi sog'liqni saqlash, 68,4 foizi ta'lum sohasidagi statistik ma'lumotlar berilgan. Bu holga ayollar maqomini ta'minlashda erishilgan yutuq sifatida gender kapitali, deya baholangan[3].

Xotin-qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligi, ularning miqomi va roli masalasini tahlilida "gender" va "jins" muammolarini adekvat tushunishga ehtiyojni tug'dirmoqda. Vaholanki, xorijiy ijtimoiy tadqiqotlarda bu ikki atama ikki xil ma'noga egaligidan "antigenderizm" harakati Yevropa davlatlarida tan olindi. Sloveniyalik olim R. Kuxar, Belgiyalik faylasuf D. Paternottening "Yevropada antigender kompaniyasi: tenglikka qarshi safarbarlik" kitobining chop etilishi muammoga sog'lom yondashuvning yangi davrini boshlab berdi[4].

Darhaqiqat, Yevropaning bir qator davlatlarida antigender harakati avj olib, ayollarning feministik harakatining oqibatlarni bartaraf etishga doir tadqiqotlar amalga oshirilib, gender va jins tengligi munosabatlari yuzasidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarga qarshi kurash shaklini oldi. Bu kurashga bir jinsli nikohga qarshilar, ota-onalar va diniy qumita va tashkilotlar yetakchilik qilmoqda. Eng muhimi, bu harakatlar gender tengligi haqidagi mafkura Yevropa va Rossiya xalqlarining milliy etnik madaniyatiga mutlaqo zid g'oyalar ekanligi e'tirof etilgan. Rus olimasi A. Temkinaning masala yuzasidan gender mafkurasining transnatsionalligi, yangi so'llik va marksizm, xalqlarning milliy etnik suverenitetiga qarshi Yevropa jamiyatidagi korrupsiyaning natijasi, degan fikri O'zbekistondagi ijtimoiy voqelikka ham to'la mos tushadi, deb hisoblaymiz[7].

Gender bo'yicha tadqiqot o'tkazgan D. Alimjanova jins (sex), gender esa jinsn ijtimoiy madaniy farqi sifatida taxlil etsa-da, lekin jinsnning erkak va ayolning biologik xususiyati ekanligini tan olgan holda fiziologik roli bilan izohlashga urinishi jiddiy bahs-munozarali masaladir. Chunki jins odamning biologik tuzilishiga asoslangan belgilari bo'lish bilan u anatomik jiddiy o'zgachalik jihatlarini, garmonlar bilan farqlanuvchi tomonlarini yoddan chiqargan[6]. Shu ma'noda ayolning o'zini anglashi identifikasiyasida endilikda erkakka xos bo'lgan biologik xususiyatlarda namoyon bo'lishi davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarida yangicha jihatlar transformatsiyasiga olib kelishi bilan davlat xavfsizligiga daxldor muammoga aylanadi.

O'zbek jamiyatiga mos bo'limgan halqaro andozalardagi ayolning siyosiy huquqlarini targ'ib qilshga uringan D. Do'stmuxammedova milliy-diniy qadriyatlarga xalqaro huquqning ayolga bog'liq normalarini kiritishda ayolning o'zligini anglashini noto'g'ri talqin etib, "... Gender tengsizlikni ular turmush me'yori deb qabul qiladilar va bunda ular erkaklarga qaraganda ko'proq eskicha qarash tarafidordirlar. Yosh ayollar siyosiy maydonni tark etib, o'zini oila muammolariga bag'ishlashni odatiy hol deb tushunadilar" deya ta'kidlaydi[7]. Biz olimaning mazkur "fatvosi" siyosiy maqadli o'zbek ayolida bu hol tabiiy biologik-ijtimoiy o'zligining identifik tuyg'ulari deb hisoblaymiz. Bu tuyg'ular tarixan shakllangan ayolning biofiziologik mentaliteti bo'lib, unga ma'muriy zo'ravonlik ijobjiy milliy manfaatlarga zid bo'lib "Ommaviy madaniyat"ga xizmat qiladi.

Respublikamiz axolining gender tengligi munosabatlarini tartibga solishda 70 dan ortiq halqaro konsensiya va shartnomalarga kirishi bilan birga Asosiy Qomusimiz va amaldagi qonunlarda ayollarning tengligi doirasida bir qator yutuqlarga erishilgani tufayli O'zbekiston hukumati faoliyati nufuzli reytingga ega bo'ldi[8]. Shu ma'noda davlatning hotin-qizlarning ijtimoiy muxofazasi oila va nikoh, onalik va bolalikni ijtimoiy kafolatlari, ayollarning ijtimoiy bandligi va siyosiy faolligini huquqiy bazasini yaratish bilan bevosita bog'liqdir. Shu ma'noda ijtimoiy fanlarda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari sohsida yanada chuqur islohotlarni amalga oshirish sekin borayotgani xususida qarashlarga qo'shilib bo'lmaydi. O'zbek xalqining etnomadaniyatiga daxl qilishga urunish ham kuzatiladi. Jumladan, tadqiqotchi Axmedshina F. jamiyatda ayollarning erkaklarga bog'liqligi bo'yicha diniy dunyoqarashni saqlanib qolishi, ularning siyosiy faoliyatiga salbiy munosabatning saqlanib qolmoqda. Ayollarning oilada farzand tarbiyasidagi roli islomda o'z ta'siriga egaligi xususidagi qarashlariga qo'shilib bo'lmaydi[9]. Fuqarolik jamiyatiningadolat tamoyillari qonuniylik va inson huquqi manfaatlari xizmatqilishi zaruriyati inkor etilishi mumkin emas.

Aslida ayollarga nisbatan har qanday zo'ravonlik barcha aqlli jamiyatlarda, jumladan, Islomda ham qoralanadi. Ayollarga nisbatan kuch ishlatish tajovuz hisoblanadi. Ularga nisbatan

hech qanday kuch, zo'ravonlik, urish, kaltaklashni ishlatib bo'lmaydi. Nasihat qilish, u kor qilmasa, sekin turtib ogohlantirish, u ham kor qilmasa, yotoqlarida tark qilish ko'zda tutilgan.

SHu bois ham, qonun 32-moddadan iborat bo'lib, 29-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi hamda 30-moddada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga etkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlashi qayd etilgan.

Oilaviy zo'ravonlikka ayollarning uchraganligi doirasidagi so'rovlardacha ayollarning 33,5 % u yoki bu shaklda uchrashini, lekin oilaviy zo'ravonlik keng tarqalmagan deb hisoblashini aniqlangan. Bu masala yana shahar ayollarida yuqoriigi, qishloq ayollarida 9,6 %dan oshmasligini ko'rsatdi[10]. Darhaqiqat, zo'ravonlikka uchragan ayollarning asosiy qismi shaharlik ayollar bo'lib, respublikada Toshkent shahrida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Ayni vaqtida shaharlik ayollarning zo'ravonlikka uchrashida ularning o'z vazifalarini bajarmasligi, munosabatlarda sabr-toqatsizligini ham kuzatish mumkin. Davlat jamiyat va shaxs hayotida olomonlik yoki kompaniyavozlik ilmiy tadqiqotga jiddiy salbiy ta'sir etishini hisobga oladigan bo'sak gender muammosi ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'siri ham endilikda namoyon bo'lmoqda.

Xotin-qizlarning gender tengligini tadqiqi milliy-diniy jihat va xususiyatlarga egaligi, yurtimizda fuqarolik jamiyatni asoslarini tiklanishidan taraqqiyot tomon shakllantirish talabdari o'z mohiyatiga ko'ra ayollarning ijtimoiy-madaniy hayotini har tomonlama farovonlik darajasiga yuksaltirishni nazarda tutadi. Shu ma'noda masala inson huquqi va manfaatlari doirasida qonun ustuvorligi ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanishi milliy taraqqiyotni ta'minlaydi.

Gender tengligi xotin-qizlarning yuksak huquqiy madaniyati va ma'rifati asosida bo'lishi oila va nikoh, farzand tarbiyasi, ularning jamiyatning barcha sohalarida o'zlarini namoyish etish uchun shart-sharoitlarni yaratishni ham nazarda tutadi. Shu bois O'zbekiston hukumatining xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi yutuqlari jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi.

O'zbekiston davlatining mustaqilligining mazmuni o'zining milliy-diniy manfaatlarini himoya etishi, milliy turmush tarzi va qadriyatlarga zid xalqaro konvensiya va paktlarni Oliy Majlis tomonidan denonsatsiya qilish tajribasini yanada davom ettirishga ehtiyoj ortib bormoqda.

O'zbekiston davlatining xotin-qizlarga oid siyosati davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, u ob'ektiv omillarga bog'liq bo'lishi lozim. Shu ma'noda xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy holati jamiyat taraqqiyoti va darajasi bilan bog'liq holda dialektik rivojlanuvchi ijtimoiy

voqelikni ifodasi bo‘lishi kerak. Demak u milliy diniy qadriyatlarni inkor qilmagan holda ijtimoiy taraqqiyot talablari doirasida dialektik shakllanadi.

Davlatning ijtimoiy siyosatida xotin-qizlarning ma’naviy-axloqiy ma’rifati ijtimoiy mavkei bilan birga funksiyasi ijtimoiy taraqqiyot buyurtmasiga mos bo‘lishi darkor. Bu hol ayollarning ijtimoiy yaratuvchilik roli yuqoriligidan kelib chiqqan holda gender huquqiy ma’rifatini oldiga bir qator vazifalarni qo‘yadi.

Demokratik yangilanish jarayonida hotin-qizlar huquqiy madaniyati, gender tengligini ta'minlash, ayollarning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy ishtirokni rag'batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Huquqiy ta'lif, ijtimoiy o'zgarishlar va zamonaviy qonunchilik, hotin-qizlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar, demokratik boshqaruvni yanada kuchaytirishga va jamiyatda adolatni ta'minlashga yordam beradi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini oldini olish uchun bir qator chora-tadbirlar va yondashuvlar mavjud. Ushbu chora-tadbirlar ijtimoiy, ta'limiy, huquqiy va psixologik jihatlardan iborat bo'lishi kerak. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini oldini olish uchun ko'p qirrali yondashuvlar va chora-tadbirlar zarur. Bu, ta'lif, ijtimoiy faoliy, psixologik yordam, huquqiy himoya va ommaviy axborot vositalarining o'zaro aloqasi orqali amalga oshirilishi kerak. Jamiyatda zo'ravonlikni rad etish va ayollarga nisbatan hurmatni oshirish, kelajakda bu muammoni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa

O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu qonunlar ayollarning huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini rag'batlantirish va gender tengligini rivojlantirishga qaratilgan. Xotin-qizlar huquqiy madaniyati, ayollarning huquqlarini anglash, ularni himoya qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Ta'lif, ijtimoiy o'zgarishlar, huquqiy himoya va faoliy, xotin-qizlar huquqiy madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar, jamiyatda gender tengligini ta'minlashga va adolatni mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Хотин-қизларга кўмаклашиш // <https://kun.uz/news/2021/02/26/xotin-qizlarga-hartomonlama-komaklashish-boyicha-vazifalar-belgilandi> (Сана: 28.08.21)
- Исоқов Б. Манфаатлар мувозанати муаммоси. – Наманган.: “Vodiy mediya”. 2021. –Б. 383
- Политический отчет ПРООН // <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/home/>

ourperspective/ ourperspectivearticles/2014/03/05/gender-equality-in-uzbekistan-why-do-i-care-about-it-.html (Сана: 05.04. 2021)

4. Paternotte D., Kuhar R. Disentangling and Locating the “Global Right”: Anti-Gender Campaigns in Europe // Politics and Governance. – 2018. Volume 6. – № 3. – P. 6 – 19.
5. Темкина А. Борьба против гендерного равенства: транснациональная мобилизация // Журнал исследований социальной политики. – 2019. – № 17(4). – С. 675 (-С. 674 – 683)
6. Алимжонова Д. Гендер и развитие // Введение теорию и практику гендерных отношений –Т.: Комитет женщин Республики Узбекистан, 2007. – С. 21 – 31.
7. Дўстмухаммедова Д. Хотин-қизлар сиёсий хуқуқларини ҳимоя қилувчи халқаро хуқуқий нормаларнинг имплементацияси масаласи// Демократлаштириш ва инсон хуқуқлари. 2006. –№ 3.–Б. 52.
8. Права человека – права женщин в Узбекистане. Учеб. пособие. – Т.: Шарқ, 2002, – С. 214.
9. Ахмедшина Ф. Гендерные проблемы Узбекистана в условиях независимости // Введение теорию и практику гендерных отношений. –Т.: Комитет женщин Республики Узбекистан, 2007. – С. 390. (-388-402 с.)
10. Убайдуллаева Р. А. Мустақил Ўзбекистон: Аёл, оила ва жамият. – Т.: Фан. 2006. – Б.41